

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ПЕДАГОГИКА КАФЕДРАСИ**

**“ТАЛАБАЛАР МАЪНАВИЯТИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН  
МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ:  
МУАММО ВА ЕЧИМЛАР”  
ХАЛҚАРО ТАШКИЛОТЛАР ИШТИРОКИДА  
РЕСПУБЛИКА МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**



Бухоро 2020

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 7 февралдаги 56-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасида 2020 йилда халқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник анжуманлар режаси” ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил 13 февралдаги “Вазирлик тизимидаги олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларида 2020 йилда ўтказиладиган илмий ва илмий-техник анжуманлар режасини тасдиқлаш тўғрисида”ги 116-сон буйруғи асосида ташкил этилди.

ДАСТУРИЙ ҚўМИТА

1.	О.Х.Хамидов	–	БухДУ ректори, т.ф.д., профессор, раис;
2.	О.С.Қаҳҳоров	–	БухДУ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини;
3.	Б.Р.Адизов	–	БухДУ хузуридаги ПКҚТ МО минтақавий марказ директори, п.ф.д., профессор, аъзо;
4	Ш.Ш.Олимов	–	БухДУ педагогика кафедраси мудири, п.ф.д., профессор, аъзо;
5.	Б.Қ.Хўжаев	–	БухДУ Педагогика кафедраси доценти, п.ф.н., котиб;

ТАШКИЛИЙ ҚўМИТА

1.	О.С.Қаҳҳоров	–	БухДУ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис;
2.	Ш.Ш.Олимов	–	БухДУ педагогика кафедраси мудири, п.ф.д., профессор, раис муовини;
3.	Ў.У.Рашидов	–	БухДУ молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо;
4.	Г.Т.Зарипов	–	БухДУ И ва ИПКТ бўлими бошлиғи, аъзо;
5	Б.С.Сафаралиев	–	Челябинск давлат маданият институти (Россия) профессори, п.ф.д., аъзо;
6	О.Г.Филлипова	-	Жанубий Урал давлат гуманитар педагогика университети “Болалик педагогикаси ва психологияси” кафедраси мудири, п.ф.д., аъзо
7.	Б.Ж.Умаров	–	БухДУ педагогика кафедраси доценти, п.ф.н., аъзо
8	Н.Э.Азимова	–	БухДУ педагогика кафедраси доценти, п.ф.н., аъзо
9	Қ.Ф.Абдуллаев	–	БухДУ педагогика кафедраси доценти, аъзо;
10	Б.Т.Жўраев	–	БухДУ педагогика кафедраси ўқитувчиси, аъзо.

**МАЪНАВИЙ БАРКАМОЛ ЁШЛАР ИҚТИСОДИЙ  
РИВОЖЛАНИШНИНГ МУСТАҲКАМ ПОЙДЕВОРИ**

**Хамидов О.Х., БухДУ ректори,**

<b>ОЛИМОВ Т. Х.</b> Бўлажак олий маълумотли мутахассисларда фуқаролик маданиятини тарбиялаш орқали фуқаролик жамиятини ривожлантириши.	<b>139</b>
<b>АТАХО'ЖАЕВ V., ALIBEKOV SH.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	<b>142</b>
<b>АТАХУЖАЕВ В., ФАНИЕВ Д.</b> Аҳоли турар-жойларида оммавий спорт ишларини ташкил қилиши.	<b>148</b>
<b>АТАХО'ЖАЕВ V.</b> Bolalar jismoniy tayyorgarligining muammolari.	<b>150</b>
<b>JUMAQULOV G'.</b> O'quvchilarning intellektual sifatlarini tarbiyalashda matematikaning roli	<b>154</b>
<b>НАЗАРОВ Ў., ШОДИЕВА Ҳ.</b> Мустақил Ўзбекистонда аёлларнинг ёш авлод маънавиятини камол топтириш йўлидаги ўрни	<b>156</b>
<b>ХОДЖАЕВ Б.Б., ХОДЖАЕВ Б.Қ.</b> Талабаларни жисмоний ривожлантиришнинг инновацион технологиялари	<b>158</b>
<b>УМАРОВ Б.Ж.</b> Талабалар маънавиятини ривожлантиришда гуруҳ раҳбарининг фаолияти	<b>162</b>
<b>УМАРОВ Б.Ж.</b> Олий таълим фаолиятида маънавий-маърифий тарбия ишларини ташкил этиши	<b>169</b>
<b>AZIMOVA N.E</b> Yoshlarni kasbga yo'naltirishda milliy istiqlol mafkurasiga asoslangan ma'naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlar	<b>175</b>
<b>AZIMOVA N.E., Nasimova Z.I.</b> Talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy odatlarini tarbiyalashning vazifalari	<b>177</b>
<b>ГУЛБОЕВ А.Т.</b> Развитие внимания средствами физической культуры	<b>180</b>
<b>GULBOYEV A.T.</b> Yoshlarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yuksaltirish	<b>183</b>
<b>АЛИМОВ А.Т.</b> Талаба-ёшларда маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантиришда педагогик инновацияларнинг ўрни	<b>187</b>
<b>ИЗБУЛЛАЕВА Г.В.</b> Педагогика ва психология таълим йўналиши талабаларида китоб мутолааси ва кутубхоналардан фойдаланиш маданиятини ошириш механизми	<b>189</b>
<b>ABDULLAYEV SH.DJ., SADRIDDINOVA D.</b> Global tarmoqning talaba-yoshlar tarbiyasiga ta'siri.	<b>193</b>
<b>АБДУЛЛАЕВ Ш.ДЖ., САДРИДИНОВА Д.</b> Бўлажак педагогларни жисмоний тарбия мутахассислиги бўйича ўқитишда инновацион технологиялардан фойдаланиш	<b>197</b>
<b>АБДУЛЛАЕВ Қ.Ф., БАҲОДИРОВА Ҳ.</b> Оила – жамиятнинг негизи ёхуд Зардуштийларда оилавий муносабатлар тизими.	<b>200</b>
<b>ADIZOVA N.I., UMAROVA M. U.</b> Axborot-texnologiya vositalari-samaradorlik garovi	<b>204</b>
<b>АБДУЛЛАЕВ Қ.Ф.</b> А.Р.Беруни великий ученый экспериментатор.	<b>207</b>

Кўриниб турибдики, зардуштийлар ҳаётида маълум қоида ва аҳкомларга айланган оилавий мунособатлар тизими ҳозирги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас. Хусусан оила мустаҳкамлигига эътибор бериш барча замонлар учун муҳимдир. Аجدодларимизнинг бой маънавий-маданий мероси оила ва турмушнинг турли қирраларида, ёш авлодни оила ва никоҳга тайёрлашда, уларни маънавий, ахлоқий хислатларини шакллантириш ва такомиллаштиришда қимматли манба бўлиб хизмат қилаверади.

#### **Адабиётлар:**

1. “Авесто” А.Маҳкам тар.Т.Шарқ.2001 й.Вандидод. 2 –фарғард.
2. Кайковус “Қобуснома” 82 бет. Т.”Ўқитувчи”.1988 й
3. Сафаров О. Маҳмудов М. “Оила маънавияти” Т.:”Маънавият”, 1998 й.
4. Ҳомидов Ҳ “Авесто файзлари”. Т. 2001 й.

#### **AXBOROT-TEXNOLOGIYA VOSITALARI- SAMARADORLIK GAROVI**

**N.I.Adizova**

**BuxDU filologiya fakulteti**

**o`zbek tilshunosligi kafedراسи o`qituvchisi**

**M. U.Umarova**

**BuxDU filologiya fakulteti**

**tillarni o`qitish (rus tili)ta`lim yo`nalishi**

**talabasi**

XXI asr- texnika- texnologiyaning yuksak taraqqiyotga, ilm-fanning ulkan yutuqlarga erishish davri bo`ldi. Globallashgan davrni axborot texnologiyalarsiz tasavvur etib bo`lmay qoldi. Uning hayotimizga kun sayin singib borishi tabiiy ehtiyojlardan biriga aylandi. Axborot texnologiyalari shiddat bilan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini egalladi. Ulkan taraqqiyot asrida yer yuzining qaysi chekkasida qanday voqea sodir bo`lmasin baridan bir zumda xabar topish oddiy hol bo`lib qoldi. Bunday “shiddat”ning esa yosh avlodga ham ijobiy, ham salbiy ta`siri borligini unutmazlik ma`naviyati yuksak millatning har bir vakili, ayniqsa , pedagoglari zimmasidagi mas`uliyat hissini yanada oshirdi.

Xalqimizda ”O`qituvchi- millat tarbiyachisi”,- deb bejizga aytilmagan. Har bir pedagog bugun talabalarning yetuk malakali mutaxassis, shu bilan birga shu millat, shu yurtga nafi tegadigan ma`naviyati yuksak, komil inson sifatida kamol topmog`i uchun ulkan mas`uliyat hamda burchni chin dildan his etmog`i lozim. Zero, Birinchi Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek, “..inson qalbiga yo`l, avvalo, ta`lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash

bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot-o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz" [1, 130].

O'qituvchilik murakkab va mashaqqatli kasblardan biridir. U o'z kasbini chin dildan sevsa, kuchli bilim va mahoratga ega bo'lsagina har qanday mashaqqatlarni osongina yengib o'ta oladi. O'zining yuksak salohiyati bilan talabalar qalbini zabt etadi. Bugungi zukko va yuksak intellektual salohiyatga ega talabalarni esa an'anaviy, oddiy usul va vositalar bilan fanga qiziqtirib bo'lmaydi. Yangi davr tarbiyachisining o'zi bugun har jabhada o'z faolligi, tezkorligi, ijodkorligi bilan yosh avlodga o'rnak bo'la olishi lozim. Eng avvalo, axborot-texnologiya vositalaridan foydalanish sirlarini puxta egallagan bo'lishi davrning eng muhim talablaridan biridir.

Hozirgi zamon ta'limining asosiy maqsadlaridan biri ijtimoiy hayotda o'z o'rniga, o'z qarashlariga, o'z so'ziga, yaratuvchanlik salohiyatiga ega shaxsni kamol toptirishdan iboratdir. O'qituvchi fanni o'rgatish jarayonida ma'lum bir vaqtda talabani ta'limiy, tarbiyaviy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy rivojlanishini hamda uning tez o'zgaruvchan dunyoda jamiyatga, hayotga moslashuvini ta'minlashga diqqat qaratishiga to'g'ri keladi. Bunday keng qamrovli maqsadlarni birdan amalga oshirish biroz qiyinchilik tug'dirishi tabiiy. Bu vaziyatda o'qituvchiga rang-barang axborot-texnologiya vositalari –multimedialar ko'makdosh bo'la oladi. Ular orqali o'qituvchi ijtimoiy hayotning xilma-xil sohasiga doir ma'lumot va axborotlar bilan fan resurslarini boyitadi. Axborotlashgan, multimediali ta'lim texnologiyalarining oily ta'lim tizimida joriy etilishi orqali o'qitiladigan fanlar mazmuni talabalar ongiga osonlik bilan singdirib borilishi, ko'p jihatdan afzalliklarga egaligi kun sayin o'z isbotini topib bormoqda. Fanga doir ma'lumotlarning video, audio hamda taqdimot materiallari sifatida namoyish etilishi darsning qiziqarli, rang-barang bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, oliy ta'limda mudul tizimining tatbiq etilishi har jihatdan axborot-texnologiyalarning beqiyos afzalliklarga ega ekanligini yana bir bor namoyon etdi. Talabalarning o'z-o'zini boshqarishi, berilgan topshiriqlarni erkin holda bajarishi, qulay usulda bilim olishga erishishi uchun muhim qadam bo'ldi. Dars va

mashg'ulotlarda multimedia vositalaridan samarali foydalanish o'ziga xos afzalliklarga ega:

-texnologiya vositalari asosida talabada barcha ma'lumotlarni ko'rish imkoni bo'ladi;

-talabaning fanga bo'lgan qiziqishi ortadi;

-uni izlanishga undaydi;

-mashg'ulotning mazmunli, rang-barang o'tishi ta'minlanadi; talaba barcha materiallarni ham ko'rish, ham eshitish, ham tahlil qilish, ham mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi;

-talabaning tafakkuri shakllanadi; unda yangi g'oyalar paydo bo'ladi;

-materialni kompyuterda saqlab qo'yib, qayta ko'rish imkoniga ega bo'ladi;

Axborot-kommunikatsion vositalari talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirib, mustahkamlab borishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba turli saytlar orqali o'ziga kerak bo'lgan bilim manbaiga, axborotlarga ega bo'ladi, kun yangiliklari bilan tanishib boradi. Bugungi kunda axborot-texnologiyalari imkoniyati tobora kengayib borishi natijasida yoshlar ajdodlarimizning ulkan ma'naviy meroslaridan ham bahramand bo'lish imkoniga ega bo'lishmoqda. Har bir imkoniyat manbaining ijobiy jihatlari qanchalik ko'p bo'lmasin, uning, albatta, salbiy tomonlarini ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Jumladan axborot-texnologiya vositalari talaba uchun cheksiz imkoniyatlarni in'om etgani holda ba'zi yot g'oyalar bilan to'ldirilgan sayt ma'lumotlari ularning ma'naviy olamiga tahdid solishi ham ehtimoldan xoli emas. Har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda foydalanish mumkin. Loqaydlikka berilgan millat yoshlarining porloq kelajagini boy berishi tabiiy. Bugun axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tezkorki, bu voqea bizdan juda olisda sodir bo'libdi, uning bizga aloqasi yo'q deb, beparvo qarab bo'lmaydi. Zotan, ana shunday kayfiyatga berilgan xalq taraqqiyotda juda orqada qolib ketishi hech gap emas. Yoshlari ma'nan kuchli, bilimli, sergak, yaratuvchan bo'lgan yurtning, millatning yutuqlari also sarhad bilmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". Toshkent-2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida .Toshkent-2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. "Xalq so'zi". Toshkent-2019. 3.05